

## BOZOR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH (istiqbolli rejalar)

Pardabayev Nursulton Abdukarim o‘g‘li  
Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
Tel: +99899 616 60 12

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mamlakatimizda bozor iqtisodiyotini rivojlanirish masalasida keying yillarda amalga oshirilayotgan ishlar, yurtboshimiz tomonidan amalga oshirilayotgan odilona siyosat taxlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Raqobat, bozor iqtisodiyoti, institutsional, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, tijorat, erkin bozor.

**Annotation:** In this article, the work carried out in the following years in the development of the market economy in our country, the fair policy implemented by our head of state is analyzed.

**Key words:** Competition, market economy, institutional, entrepreneurship, business, commerce, free market.

Vazirlar Mahkamasining 2021- yil 30- dekabrdagi 816-qarorida ko‘rsatilishicha, 2020- yil 16- dekabrda Juhon banki ishtirokida “O‘zbekistonda shaffof va keng bozor iqtisodiyotiga o‘tishni rivojlanirish siyosatini qo‘llab-quvvatlash” loyihasini amalga oshirish doirasida O‘zbekiston hamda Juhon banki o‘rtasida byudjetni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qarz bitimi va moliyaviy bitim imzolangan[1].

Unga ko‘ra, Xalqaro tiklanish va tarqqiyot banki (XTTB)ning 10,5 yil muddatga 250 million AQSh dollari 5 yil imtiyozli davri bilan hamda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU)ning 30 yil muddatga 165 million AQSh dollari miqdoridagi imtiyozli va 85 million AQSh dollari miqdorida imtiyozsiz qarz mablag‘lari jalb qilinishi yurtimizda bozor iqtisodiyoti masalasiga alohida ahamiyat qaratilayotganidan dalolat beradi.

Albatta, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloq qilish va rivojlanishiga aloqador vazirlik va idoralar faoliyati uyg‘unligini ta’minlash, mavjud muammo va to‘siqlarni tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etishga asoslangan zamonaviy va inklyuziv institutsional tizimni joriy etilishi iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlanirish uchun fundamental sharoitlarni yaratib berish hisobiga yangi va barqaror ish o‘rinlarini tashkil etishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev e’tirof etganidek “Barchamiz yaxshi bilamizki, tadbirkorlik, ishbilarmonlik xususiyatlari avvalo yoshlarga xos fazilat hissoblanadi. Demak, tadbirkorlikka yo’l ochish avvalo,

yoshlarga keng yo'l ochib berishdir, desak ayni haqiqat bo'ladi"[2.104]. Bu esa bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy iqtisodchi olimlarning bozor itqisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati va dolzarb masalalari yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilib, nazariyalar ishlab chiqilgan. Ingiliz iqtisodchi olimi A.Smitning fikricha "Tadbirkor bu qandaydir tijorat g'oyasini amalga oshirish va foyda olish maqsadidagi iqtisodiy tavakkalchiligidir, uning o'zi ishlab chiqarishni rejalashtiradi, tashkil qiladi va natijalarini o'zi ta'sarruf etadi"[3.174],- deb ta'kidlaydi. Ushbu fikrdan kelib chiqsak bozor iqtisodiyotiga ana shunday tadbirkorlarni ko'proq jalg qilish sog'loq raqobatni oshishiga olib keladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning iqtisodiyotni erkinlashtirish borasidagi islohotlari butun dunyo matbuoti e'tiborida, ya'ni jahonning eng yirik kompaniyalarining diqqat e'tiborida turibdi. Zero, O'zbekistonda erkin bozor mexanizmlari qanchalik mukammal joriy etilsa, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlansa, milliy bozorimizga kirib kelayotgan xorijiy investorlar oqimi shunchalik ko'payadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2020- yil 6- iyuldagagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha qo'shimcha chora -tadbirlar to'g'risida" gi qarorida raqobat masalasidagi yangi istiqbollar aniq ko'rsatilgan. Farmon bilan tabiiy monopoliyalarning raqobat muhitiga ega bozorga o'tishidagi to'siqlarni bartaraf etish va vositalarni joriy etishga qaratilgan, Monopoliyaga qarshi qo'mita tomonidan raqobatni cheklashning oldini olish uchun ishlab chiqilgan "2020-2024 yillarga mo'ljallangan tovar va moliyaviy bozorlarda raqobatni rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlandi[4]. Ushbu strategiyada ko'zlangan maqsadlar to'laligicha amalga oshirilsa yurtimiz bozorlarining erkin raqobati jahon bozorlaridagidek jozibador ko'rinishga ega bo'ladi.

Mamlakatda zamonaviy bozor iqtisodiyoti rivojlanishi uchun raqobat shakllanishi kerak bo'lgan sohalardagi korxonalari saqlanib qolinishi, korxonalar uchun ularning bozor sharoitlariga tarkiban moslashuviga imkon beradigan xo'jalik yuritish mexanizmini ishlab chiqarish muhim o'rinnegallaydi. Bu mexanizm davlat korxonalari iqtisodiy jihatdan erkin bo'lishini, ularning faoliyati tijoratlashgan bo'lishini nazarda tutadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida raqobatning asosiy usuli narx bo'lganligi sababli, narxlarni erkin qo'yib yuborish raqobatli muhitni vujudga keltirishning asosiy talabi hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://uznews.uz/posts/7541>. Ўзбекистон шаффоғ бозор иқтисодиётини ривожлантириш учун Жаҳон банкидан \$500 миллион қарз олади.2021 йил 2 январ.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз.– Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
3. Смит А. Исследование о природе и причинах богаство народов.-М.:1966.
4. <https://review.uz/oz/post/antimonopolny-kontekst-provodimx-reform>.  
Монополияга қарши қурашишда амалга оширилаётган ислоҳотлар мазмуни. 21.10.2021.